

TOSHKENT VILOYATI HUDUDNING TABIIY- XO‘JALIK SHAROITLARI VA TUPROQLARI

Ma‘ripova Mexriniso Murod qizi talaba
G‘ulamova Zilola Sattarovna assistent,
Toshkent davlat agrar universiteti

Annotatsiya

Maqolada Toshkent viloyati hududi haqida qisqacha geografik tavsif berish, viloyatda tarqalgan tuproqlarning holati va ularni o‘rganishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar

gumus, gidromorf tuproqlar, tekislik, eroziyalansh darajasi, tipik bo‘z tuproq, efemer, qatlam

Bugungi kunda dunyoda umumiy yer maydonining 11% yoki 14.5 mln.km kv ishlab chiqarishga yaroqli yerlar hisoblanadi. Dunyo miqiyosida yer maydonining 13.2 mlrd bo‘lib uning 12% (1.6 mlrd ga) hozirgi kunda qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish uchun foydalanadigan yerlar, 28%(3.7 mlrd ga) o‘rmon ostidagi yerlar , 35%(4.6 mlrd ga) o‘tloqlar va o‘rmonzorlar ekotizimlari tashkil qiladi, ya‘ni kam daromadli mamlakatlar yer maydonining taxminan 22% ni egallaydi. Shu bois dunyo mamlakatlarida tuproqlarning hozirgi ahvolini, ularni tabiiy va antropogen omillar ta‘sirida o‘zgarishini aniqlash, degradatsiyani oldini olish va gumusli holatini yaxshilash dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Davlat kadastrlari palatasi Toshkent viloyati boshqarmasi tahlillariga ko‘ra, viloyatda 2019-2023 yillarda jami 37 ta holatda 26 068,0 gektar yer maydonlaridan iborat. Ajratilgan yer maydonlarining 1087,3 gektari sug‘oriladigan ekin yer maydonlari, 76,6 gektar ilalmi, 248,2 gektari bog‘ va uzumzorlar, 20266,9 gektari yaylov va pichanzorlar, 4389,1 gektarini boshqa turdagi yerlar tashkil etadi.

Parkent tumani O‘rta Tyanshanning Chatqol tizmasi g‘arbiy etaklarida joylashgan. Hududi tog‘lar bilan uralgan. Yer yuzasi g‘arbdan sharqqa balandlashib boradi. Eng baland joyi-3627,8 m (Qizilnura cho‘qqisi). Relyefi tog‘ oldi tekisligi, adir va tog‘lardan iborat. Iqlimi tog‘ oldi va tog‘ iqlimiga xos, nisbatan kontinental. Tekisliklarda tipik bo‘z tuproq, adirlarda to‘q bo‘z tuproq, tog‘ zonasida esa tog‘-o‘rmon tuproqlari tarqalgan. Tog‘ yon bag‘irlarida gorlar mavjud. Soy va buloq ko‘p. Havoning yillik o‘rtacha temperaturasi 12°. Yillik yog‘in 536 mm. Vegetatsiya davri 180 kun. Chirchiq daryosining chap irmoklari: Parkentsoy, Boshqizilsoy va Oqsoqotasoy Parkent tumanining asosiy suv manbalari hisoblanadi. Ularning boshlanish joyida sharsharalar mavjud.

Tuman hududida 70 oilaga mansub 1000 dan ziyod o‘simlik turi qayd etilgan. Shundan 200 ga yaqini dorivor o‘simliklar. Adirlarda efemer va efemeroidlar hamda ko‘p yillik o‘simliklar tarqalgan. Ayniqsa, dukkakkdoshlar, labguldoshlar, murakkabguldoshlar oilasiga mansub o‘simlik turi ko‘p. Tog‘ etaklarini o‘tloklar, yon bag‘irlarini archazorlar qoplagan. Ba‘zi joylarda yongokzorlar, tog pistasi, na‘matak, olcha, olma, zirk, do‘lana va

boshqa o'simliklar uchraydi. Daryolarning yuqori oqimi vodiylarida terak, tol, kamxastak, jingil, olcha kabi daraxtlar usadi. 2400 m balandlikdan yuqorida joylashgan tog' cho'lida O'zbekistonning "Qizil kitoboiga kiritilgan Grey va Kaufman lolalari, sovunildiz, piskom piyozi uchraydi.

Toshkent viloyati va Parkent tumanining tog' oldi va tog'larida tuproqlarning genetik xilma-xilligi umumiy geografik qonuniyatga bo'ysunadi. Joyning mutlaq balandligi ortib borgan sari yer yuzasining bo'laklarning bo'linishi, odatda, kuchayadi, havo temperaturasining rejimi yumshab, yog'in miqdori ortadi, o'simlik qoplami ham chala cho'l efemerlaridan quruq dashtga xos o'tlar, archazor-siyrak daraxtlari o'rmon, o'rmon, o'tloqi-dasht va dasht o'simliklariga qadar navbatlanib boradi. Mavjud landshaft mintaqalarining har biri tuproq tarkibi va tuproq qoplamining o'ziga xos tuzilishi bilan bir-biridan farq qiladi.

Vertikal mintaqalardagi tuproqlar 3 tuproq-iqlim mintaqasiga bo'linadi: bo'z tuproq, o'rta tog' jigarrang tuproq va baland tog' och-qo'ng'ir o'tloqi-dasht tuproqlari. Bo'z tuproqlarning quyi chegarasi dengiz sathidan 250–400 m balandlikda. Bu tuproqlar 900–1600 m balandlikda tog' jigarrang tuproqlari bilan almashinadi.

Bo'z tuproqlar tog'larda o'ziga xos tuproq tipini hosil qilgan. Efemer yoki quruq dasht o'simliklarining barq urib o'sishi natijasida tuproqda chim qatlami vujudga kelgan va organik moddalar to'plangan. Bo'z tuproqlar morfologiyasi va kimyoviy tarkibiga ko'ra 3 xil: och tusli, tipik (oddiy) va to'q tusli bo'ladi. Bo'z tuproqlarda gumus chimli qavatida 1-4 % miqdorida; oziq moddalar yetarli, fizik xossalari yaxshi. Gumusli qavati (50-60 sm) sur rangli. Sug'orish natijasida 1,5-2 m gacha agroirrigatsion qatlam hosil bo'lgan.

Ma'lum geomorfologik sharoitlarda tog' etagidagi yassi, kam drenajlangan tekisliklarda sug'orish natijasida grunt suvlari ko'tarilib, o'tloqi tuproq vujudga keladi, tuproqni sho'r bosadi. Daryolarning quyi terrasalari, deltalari, tog' etagidagi alyuvial-proyuvial tekisliklardagi gidromorf tuproqlar genetik jihatdan bir oz farq qiladi.

Qishloq xo'jaligi tuman ishlab chiqarishning yetakchi sohasi hisoblanadi; asosan, uzumchilikka ixtisoslashgan. Parkent tumanida 11 shirkat xo'jaligi, 530 dan ziyod dehqon-fermer xo'jaliklari, qariyb 5600 yakka xo'jalik bor. Tumandagi foydalaniladigan 61640 ga yerdan 15,4 ming ga yer haydaladi, 14,7 ming ga yer sug'oriladi. 46972 ga lalmikor yer mavjud. 8934 ga yerga don, 1162 ga yerga sabzavot va poliz, 266 ga yerga kartoshka, 3026 ga yerga yem-xashak ekinlari ekiladi. Tuman jamoa va shaxsiy xo'jaliklarida 30610 qoramol, 67882 qo'y va echki, 2376 ot, parranda boqiladi (2003).

Bu hududning iqlim sharoiti o'ziga xos bo'lib, tekislik qismidan tog' mintaqalari tomon havoning harorati pasayib boradi, atmosfera yog'in miqdorlari esa aksincha ko'payadi. Toshkent viloyati tuproqlari granulometrik tarkibga ko'ra o'rta soz bo'lib, lyoss fraktsiyasi 50,2% gacha, qum fraktsiyasining miqdori 10,8%, fizikaviy loy 45,1% ni tashkil etdi. Tuproq qatlamini asosan sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar tashkil etadi.

Harorat o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi uchun eng zarur omillardan biri hisoblanadi. Har bir o'simlik turi uchun minimal, optimal va maksimal harorat mavjud bo'lgan holdagina o'simliklar o'sadi, rivojlanadi va ularda normal fiziologik jarayonlar amalga

oshadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, harorat o‘simliklar hayotida, ularning geografik tarqalishida, tipining tashkil topishida muhim ekologik omil hisoblanadi.

Toshkent viloyatining iqlim sharoiti o‘ziga xos bo‘lib, tekislik qismidan tog‘ mintaqalari tomon havoning harorati pasayib boradi, atmosfera yog‘in miqdorlari esa aksincha ko‘payadi. Tekislik va adir mintaqalarida qish oylar isobining harorati turg‘unsizdir, ular yillar bo‘yicha o‘zgarib turadi.

Mazkur hududning iqlimini tavsiflashda “Toshkent” meteorologik stantsiyasining ma’lumotlaridan foydalandik. Ularga ko‘ra, mazkur hududning iqlimi keskin kontinental bo‘lib, haroratning sutkalik o‘zgarib turishi, yoz oylarining issiq va quruq bo‘lishi, kuz faslining iliq va quruqligi hamda qishning sovuqligi bilan ajralib turadi. Toshkent viloyati uchun nisbatan past shamol tezligi 1,4 m/sek ni tashkil etadi.

Toshkent viloyatining iqlim sharoiti o‘ziga xos bo‘lib, tekislik qismidan tog‘ mintaqalari tomon havoning harorati pasayib boradi, atmosfera yog‘in miqdorlari esa aksincha ko‘payadi. Tekislik va adir mintaqalarida qish oylarining harorati turg‘unsizdir, ular yillar bo‘yicha o‘zgarib turadi.

Toshkent viloyatining donli ekinlar bilan band bo‘lgan lalmi yerlarida yuza suv eroziyasi Bo‘stonliq, Yuqori Chirchiq, O‘rta Chirchiq, Bo‘ka, Parkent tumanlari to‘q tusli bo‘z va tog‘ jigarrang tuproqlarida keng tarqalgan.

Eroziyalanish bo‘yicha lalmi to‘q tusli bo‘z tupro‘raqlarni morfologik yozilmalari berilgan va ularni ko‘rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan. Ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra ko‘ra eroziya natijasida qiyalikni pastki tekis qismida «Yig‘ilib to‘plangan» tuproqlarda gumusli akkumulyativ qatlam karbonatlarning maksimum chegarasi 110-130 sm tashkil etadi, albatta karbonatlar chuqur yuvilib to‘planadi. (X.M.Maxsudov N.B.Raupova, 2006, 2010).

1-jadval

Lalmi to‘q tusli bo‘z tuproqning morfologik ko‘rsatkichlariga suv eroziyasini ta’siri. (Toshkent viloyati Parkent tumani X.M.Maxsudov N.B.Raupova, 2006, 2010).

Kesmaning tartib raqami, qivalikdagi joyi, eroziyalansh darajasi	Qivalik darjasi va ekspozitsiyasida	Gumuslangan (A+B ₁ +B ₂) qatlam qalinligi, sm	Yangi varalmalarning yuqori ko‘rinish chegarasi, sm	Gipsning to‘planish chegarasi, sm.		(A) xavdalma qatlam rangi.
			Oq mog‘or va dog‘ ko‘rinishida	Yirik ko‘zanakli ko‘rinishida	150 sm dan chuqurroqda	
K-1 qivalikni yuqori, suvayirg‘ich tekis qismi, eroziyalanmagan tuproq	1-2°	72	19-27	72-110	150 sm dan chuqurroqda	To‘q bo‘z rangda
K-2 qivalikning o‘rtacha qismi, eroziyalangan tuproq	7-8°	54	Oq mog‘or va tuganakli, yirik ko‘zanakli shakldagi yangi varalmalar profilini 30 sm dan boshlanib 54-85 sm chuqurliklarda kuzatiladi.	150 sm dan chuqurroqda		bo‘z rangli
K-3 qivalikni 3-chi qismi, kuchli eroziyalangan tuproq	8-9°	38	Yangi varalmalar ko‘zga ko‘rinmaydi, (analizlar natijasiga asoslanadi)	150 sm dan chuqurroqda		bo‘z rangli

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1.Махсудов Х.М.-Эродированные сероземы и пути повышения их продуктивности. Ташкент, "Фан", 1981, стр. 105-126.

2.Махсудов Х.М. -Эрозия почв аридной зоны Узбекистана. Ташкент, 1989, стр. 31-67.

3.Махсудов Х.М., Ҳақбердиев О.Э. Жанубий Хисор тоғ ён бағри тупроқларининг ўзига хослиги ва уларнинг эрозияланганлик даражаси. Тошкент. 2010.

<https://m.anliq.uz>

<https://hozir.org>

<https://uz.wikipedia.org>